

ONA TILI TA'LIMI JARAYONIDA IJODIY MATNLARDAN FOYDALANISHNING
PSIXO-PEDAGOGIK ASOSLARI

M.X. Baxrinova

Qarshi Davlat Universiteti doktaranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15050357>

Annotatsiya. Mazkur maqola, ona tili ta'limi jarayonida ijodiy matnlardan foydalishning psixo-pedagogik asoslarini o'rghanishga bag'ishlangan. Ijodiy matnlar o'quvchilarning fikrlash, tasavvur va tilni erkin ifodalash qobiliyatlarini rivojlanlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ishda psixologik va pedagogik nazariyalar orqali ijodiy matnlar bilan ishlashning ta'lim jarayoniga ta'siri, shuningdek, o'quvchilarning emotsiyonal va intellektual rivojlanishiga qo'shgan hissasi ko'rsatilgan. Matnlar orqali o'quvchilarning individual xususiyatlari va ijtimoiy muhitda o'z-o'zini anglash jarayonlari chuqur tahlil qilinadi. Maqola, ijodiy matnlarni ta'limda samarali qo'llash uchun zarur psixo-pedagogik yondoshuvlarni tavsiya etadi. Shuningdek, ona tili ta'limida ijodiy yondoshuvlarning o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqida misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ona tili ta'limi, psixo-pedagogik, matn, immanent yondashuv, kreativ rivojlanish.

PSYCHO-PEDAGOGICAL BASIS OF THE USE OF CREATIVE TEXTS IN THE
PROCESS OF NATIVE LANGUAGE EDUCATION

Abstract. This article is devoted to the study of the psycho-pedagogical foundations of the use of creative texts in the process of native language education. Creative texts are important in developing students' thinking, imagination and free language expression. This work shows the impact of working with creative texts on the educational process, as well as their contribution to the emotional and intellectual development of students through psychological and pedagogical theories. Through texts, the individual characteristics of students and the processes of self-awareness in the social environment are deeply analyzed. The article recommends the necessary psycho-pedagogical approaches for the effective use of creative texts in education. It also provides examples of how creative approaches in native language education have a positive impact on the personal development of students.

Keywords: Mother tongue education, psycho-pedagogical, text, immanent approach, creative development.

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТВОРЧЕСКИХ ТЕКСТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ РОДНОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация. Статья посвящена исследованию психолого-педагогических основ использования творческих текстов в процессе обучения родному языку. Творческое письмо важно для развития мышления, воображения и языковых навыков учащихся. В данной работе показано влияние работы с творческими текстами на образовательный процесс, а также ее вклад в эмоциональное и интеллектуальное развитие учащихся с помощью психолого-педагогических теорий. В текстах глубоко анализируются индивидуальные особенности учащихся и процессы самосознания в социальной среде. В статье рекомендуются необходимые психолого-педагогические подходы для эффективного использования творческих текстов в образовании. В нем также приводятся примеры того, как творческие подходы к обучению родному языку могут положительно влиять на личностное развитие учащихся.

Ключевые слова: родное образование, психолого-педагогический, текст, имманентный подход, творческое развитие.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yilayotgan yuqori talablar ta'lim oluvchilar ijodiy jarayonlarini shakllantirish muammosini hal etishda yangi, samarador psixologik-pedagogik yondashuvlarni aniqlashtirishni taqozo etmoqda. Rivojlangan davlatlarda ta'lim oluvchilarining intellektual, kreativ rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. shu sababli turli predmetlar negizida samarali vositalar yordamida mazkur muammoni hal etishga e'tibor qaratilmoqda. Bu borada ona tili ta'limi muhim bo'lib, fan mazmuni doirasida ijodiy matnlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

“Matn” tushunchasining ikkita asosiy talqini mavjud: immanent (kengaytirilgan, falsafiy qarashlarga yo'g'rilgan) va reprezentativ (asosan, xususiy munosabat aks etgan). Immanent yondashuv matnda voqelikka xolis munosabat bildirib, uning ichki tuzilishini uchinchi shaxs tomonidan yoritishga e'tibor qaratishni nazarda tutadi. Reprezentativ yondashuv esa, matnni tashqi voqelik haqidagi ma'lumotni taqdim etishning maxsus shakli sifatida ko'rib chiqishni anglatadi. „Matn“ atamasi keng doirada, jumladan, og'zaki nutq namunalarida ham qo'llanadi.

Matnni idrok etish matn lingvistikasi va psixolingvistika doirasida o'rganiladi.

R. Galperin matn xususiyatlari haqida to'xtalib o'tar ekan, unga quyidagicha ta'rif beradi:

“Matn bu yozma hujjat shaklida ob’ektivlashtirilgan, turli xil leksik, grammatik va mantiqiy bog‘lanishlar bilan birlashtirilgan bir qator bayonotlardan tashkil topgan, axloqiy xarakter, pragmatik munosabat va shunga mos ravishda adabiy qayta ishlangan ma’lum bir xususiyatga ega bo‘lgan yozma xabardir”

Ona tili ta’limida ijodiy matnlar orqali ta’lim oluvchi qobiliyatini rivojlantirishda pedagog shaxsi ijodiy masalalarni ifodalash va sinflarga ajratish murakkab muammolardan hisoblanadi.

Uni loyihalashtirish uchun qator nostandard masalalar ifodalangan psixologik-pedagogik adabiyotlar taxlil qilindi. [2].

Yuqoridagilarga asoslanib, quyidagi nostandard (holatli) masalalar sinfini qayd etish mumkin:

Psixologik samaradorligiga nisbatan: ta’limiy natijasiga (ilmiy bilimlar tizimini shakllantirishga); rivojlantiruvchi samaradorligiga (bilish qobiliyatlarini rivojlantirish: kuzatuvchanlik, xotirasi, tafakkuri, tasavvuri va boshqalarga) ko‘ra; tarbiyaviy ta’siriga (estetik, jismoniy, vatanparvarligi, mehnat tarbiyasiga)ko‘ra.

Funksional mahsulotiga nisbatan: gnostik (pedagogik holatni tadqiq etish va baholash, obyekt yoki subyektning pedagogik faoliyati, ta’lim-tarbiyadagi material, vosita va pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodlari); konstruktiv-loyihalashtirish (pedagogik tizimlardagi alohida bloklarni konstruktiv-loyihalashtirish: yillik, choraklik, tematik, mashg‘ulotlar rejalar); tashkiliy (o‘z faoliyatini, o‘quvchilar, ota-onalar, o‘qituvchilar va boshqalarni faoliyatini tashkil etish); kommunikativlik (sinf va alohida o‘quvchilar, oilasi, sinfga dars beruvchi pedagoglar bilan ijobiy munosobatlarni o‘rnatish).

Yechimni topish strategiyasiga nisbatan: tasodifiy izlanish va sinab ko‘rish hamda xatolar; masalani qayta ifodalash; analogiya; umumlashtirish va ixtisoslashtirish; aqliy hujum.

Pedagog bu borada eng asosiysi psixologik-pedagogik vazifalarni yecha olishning universal ko‘nikmasiga ega bo‘lishi lozim. Bu murakkab, ijodiy, pedagogik jarayonni taxlil eta olish ko‘nikmasini o‘zida jamlagan, bundan tashqari pedagogik vazifalarni ko‘ra olishi va ifodalay olish hamda reja tuza olish va yechimni optimal variantini topa olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak.

Vazifa yoki ijodiy matnni hal etish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat:
vazifa yoki masalani topish va ifodalash;
yechimni borishini umumiyl holda tasavvur eta olish;

pedagogik vazifa yoki masalani xususiy hollariga bo‘la olish; yechimning optimal variantini topa olish; olingan natijani taxlil va baholay olish.

ijodiy matn bilan ishlayotgan har bir inson murakkab tafakkur amallarini bajaradi.

D.Poya o‘z tadqiqot ishida muammoni yoki masalani yechishning quyidagi shaklini taklif etgan: muammo yoki masalani tushunish; uni yechish rejasini tuzish; yechish rejasini amalga oshirish; “amalga oshirilgan ishga nazar tashlash” (olingan natijani o‘rganib chiqish) [2].

Psixologik-pedagogik jihatdan ijodiy matnni yoki masalani yechish jarayonining uchta asosiy bosqichi ajratib ko‘rsatilgan: analitik, loyihalash va amalga oshirish. Birinchi bosqichda tahliliy predmet sifatida ta’lim oluvchi amaliyoti davomida duch keladigan ijodiy holatni oladi.

Bu holatni natijasini aks ettirilishi - qo‘yilgan masalani berilgan shartlar asosida yechishni talab etilishidir. Ijodiy matnni tahlil qila turib ta’lim oluvchi o‘zi uchun aniq masalani ifoda qilib oladi. Keyingi bosqichda u berilgan faoliyat shartlari asosida qo‘yilgan maqsadga erishish uchun qandaydir ijodiy xarakterdagi vositani topishi lozim.

Ijodiy tafakkurni shakllantirishda matnlarning ahamiyati katta bo‘lib. Bunda ishlatiladigan so‘z va so‘z birikmalari, tez aytishlar, maqollar va boshqalarning ko‘chma ma’nosini ta’lim oluvchilar uchun dastlab tushunish qiyin kechadi. U aniq butun obrazlar bilan ulardagi ma’no va g‘oyani ajrata olmasdan ishlaydi.

Umuman olganda, shaxs berilgan ijodiy mant ustida mulohaza hamda tahlil qilishi va fikrlash asosida kerakli bog‘lanishlarni aniqlashi, unga ma’lum bo‘lgan mos qoida, usullarni, amallarni tanlashi va tadbiq qilishi lozim.

U izlanayotgan bog‘lanishlarni aniqlashi bilan birga taqqoslashi, guruhlashi hamda turli o‘xshash predmetlarni farqlay bilishi va bularning barchasini tafakkur harakatlar vositasida bajarishi kerak.

REFERENCES

1. Ziyadova T.U. Ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarni so‘z boyligini oshirish. Ped.fan.nom.... diss.- T.: 1995. -161 b
2. Nishanova Z. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari: Psixol. fan. dok. ... diss. avtoreferati. – Toshkent: 2005. – 38 b.